

Lazizaxon A. ALIDJANOVA
Teacher of the UNESCO
Department for Religious Studies and
Comparative Study of World Religions,
International Islamic Academy of Uzbekistan, PhD.
A.Kadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: lazizaxontiu@gmail.com

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2023-3/10

**O'RTA ASR MUSULMON
MAMLAKATLARIDA SALOMATLIK
MASKANLARINING ТАДРИЖИЙ
РИВОЖИ**

**EVOLUTION OF HEALTH CENTERS IN
MEDIEVAL MUSLIM COUNTRIES**

**ЭВОЛЮЦИЯ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ
ЦЕНТРОВ МУСУЛЬМАНСКИХ СТРАН В
СРЕДНИЕ ВЕКА**

KIRISH

Islom dini vujudga kelgandan so'ng musulmon mamlakatlarida mavjud davolash amaliyotlari tibbiyot va diniy marosimlar bilan uyg'un holda amalga oshirilgan. Shifoxonalar "jismaniy" sog'liqni saqlash muassasasining birinchi modeli (Michael W., 1987) sifatida xizmat qilgan. O'rta asrning o'rtalariga kelib tibbiyot, shuningdek, musulmon olamidagi kasalxonalar vaqf tomonidan to'liq ta'minlanganligi sababli avvalgilariga qaraganda tezroq rivojlanib borgan.

Shifoxonalarning tashkil etilishi dastlab dunyoviy va xayriya maqsadida bo'lib, epidemiyalarning kuchayishiga qarshi xizmat qilgan. Eron va Vizantiyada xalifalar va xalifaliklarning boy aholisi hisobidan kasalxonalar tashkil etilgan. Ular bepul va asosan kambag'allar uchun mo'ljallangan. Bemorlar kasallik turiga qarab taqsimlangan, ayollar erkaklardan ajratilgan. Shifoxonalar qoshida dorixonalar, kutubxonalar, oshxonalar, masjidlar faoliyat yuritgan.

Kasalxonalar 3 xil ko'rinishda bo'lgan:

1) xalifalar yoki mashhur musulmon arboblari tomonidan asos solingan, umumiy aholi uchun mo'ljallangan kasalxonalar. Ular davlat tomonidan moliyalashtirilgan, shifokorlar va xizmatchilar shtati mavjud bo'lgan;

2) shifokorlar va din arboblari tomonidan moliyalashtiriladigan kichik kasalxonalar;

3) harbiy qism bilan birga harakatlanuvchi harbiy tibbiyot muassasalari.

Musulmon dunyosidagi birinchi kasalxona xalifa Valid davrida 707-yilda qurilgan bo'lib, moxov bilan kasallangan bemorlar uchun boshpana hisoblangan. Keyinchalik xalifaliklarda ruhiy kasallar, ko'rlar va qariyalar uchun boshpana paydo bo'ldi. Misrda birinchi yirik shifoxona 873-yilda barpo etilgan.

Bog'dodda ilk kasalxona xalifa Horun al-Rashid va mashhur Baxtishlar sulolasidan bo'lgan arman nasroniy shifokori Jabroil ibn Baxtish tashabbusi bilan tahminan 805-yilda tashkil etilgan. Ikki yarim asr o'tgach (1160-yilda) ularning soni 60 dan oshdi.

IX asr boshlarida Qohirada zamonaviy tizimga amal qiladigan birinchi kasalxona tashkil etilib, butun musulmon Sharqida shifoxona qurilishi uchun namuna bo'lib xizmat qildi (Lawrence I., 1995).

XII asrga kelib esa, vaqf ta'minoti ko'payishi "bemoriston"larning islom dunyosining muhim nuqtasiga aylanishiga sababchi bo'ldi.

Ilk islom kasalxonalari haqida tarixiy va zamonaviy olimlar ishlaridan tashkil topgan manbalar arab, ingliz va fors tillarida yozilgan. Arab tilidagi matnlarning aksariyati shifoxona tashkil etilgandan keyin yozilgan tarixiy qomuslarda shifoxona masalasiga to'xtalib o'tadi. Bu kabi arabiy matnlar va birlamchi manbalar asosiy voqea va hodisalarni hikoya qilishda xronologik yondashuvdan foydalanadi (Taqiyuddin al-Muqriziy, 1997). Jumladan, Ahmad Iso Bik qalamiga mansub "Tarix al-Bimoristonat fil-islam" asari ham tarixiylik asosida hamda bir qator zamonaviy ilmiy maqolalardan foydalangan holda yozilgan. "Bemoriston" so'zi forscha bo'lib, "bemor" – kasal yoki ta'sir ko'rsatilgan odam, "iston" – joy, makon (Ahmad Isobek, 1981) ma'nosini anglatadi. Ayrim mualliflar buni "bemorlar joylashgan joy", ya'ni shifoxona deb tarjima qiladilar (Anand J., 2007:69). Ushbu so'zning ma'nosini Ibn Abi Usaybiya "bemorlar joyi" deb tarjima qilgan (Ibn Abi Usaybiya, 1891:45).

Vaqt o'tishi bilan ushbu bimariston atamasi arab tilida hech qanday ma'noga ega bo'lmagani sababli "maristan"ga qisqartirildi (Ahmad Isobek, 1981). Lekin, "maristan" so'zining kelib chiqishi forsiy iboraga mansub emas. "Maristan" so'zining kelib chiqishi Suryoniy tildan olingan degan tahmin mavjud bo'lib, "Mar" Iso Masihning onasi Maryam ismidan olingan, "istan" esa forscha joy ma'nosini anglatadi. Shu sababli maristan "Maryamning joyi" degan ma'noni anglatgan (Muhammad Boqir Majlisiiy, 1897:89–97). Bu esa, islomdan

Аннотатсия. O'rta asrlardagi islom davridagi shifoxona tizimining rivojlanishi butun dunyo bo'ylab zamonaviy shifoxona tizimiga ko'p jihatdan o'z ta'sirini ko'rsatdi. U ko'chma shifoxonalar kabi o'z davri uchun innovatsion g'oyalari va amaliyotlarni tatbiq etish, tibbiyot maktablari va universitetlarini tashkil etish orqali tibbiy tadqiqotlarni rivojlantirish va shu soha mutaxassislariga qo'shimcha rag'batlantirishlar joriy etildi. Bemorlarga rahm-shafqat va insonparvar munosabatda bo'lish asnosida sog'lom shifoxona boshqaruvi uchun muhim poydevor yaratdi. Ayol xodimlar bandligini rag'batlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish nuqtai nazaridan yetakchi bo'ldi. Tibbiyot muassasalari va sog'liqni saqlash tizimi va tibbiy etikani joriy etish kabi bir qator ishlar amalga oshirildi. Bu xususiyatlar o'rta asrlardagi islom shifoxonalarini o'z davrining zamonaviy shifoxona tizimini joriy etishga turtki bo'lib xizmat qildi. Ushbu kasalxonalarining moddiy bazasi qirollik huzuridagi vaqf xayriya fondlari tomonidan ta'minlangan.

Kalit so'zlar: Kasalxona, Bimariston, Al-Nuriy kasalxonasi, Al-Mansur kasalxonasi, o'rta asr islomi.

Abstract. The development of the hospital system during the medieval Islamic era influenced the modern hospital system worldwide in many ways. It implemented innovative ideas and practices for its time, such as mobile hospitals, developed medical research through the establishment of medical schools and universities, and introduced additional incentives for specialists in this field. An important foundation for healthy hospital management was created through the compassionate and humane treatment of patients. An advantage was achieved in terms of encouraging the employment of female employees and introducing innovative technologies. Several things were done, such as the introduction of medical institutions the health care system, and medical ethics. These features motivated medieval Islamic hospitals to introduce the modern hospital system of their time. The expenses of these hospitals were covered by the waqf charitable funds of the king.

Keywords: Hospital, Bimaristan, Al-Nuri Hospital, Al-Mansur Hospital, medieval Islam.

Аннотация. Развитие больничной системы в средневековую исламскую эпоху во многом повлияло на современную больничную систему во всем мире. Реализованы инновационные для своего времени идеи и практики, такие как мобильные больницы, были развиты медицинские исследования посредством создания медицинских школ и университетов, а также введены дополнительные стимулы для специалистов в этой области. Заложена важная основа для здорового управления больницей посредством сострадательного и гуманного обращения с пациентами. Она (исламская больничная система) стала лидером по содействию занятости женщин-сотрудниц и внедрению инновационных технологий. Осуществлен целый ряд мероприятий, как введение медицинских учреждений, системы здравоохранения и медицинской этики. Эти особенности побудили средневековые исламские больницы внедрить современную больничную систему своего времени. Материальную базу этих больниц обеспечивали благотворительные фонды королевства.

Ключевые слова: больница, Бимаристан, больница ан-Нури, больница ал-Мансур, средневековый ислам.

avvalgi davrda kasalxonalarining diniy roli mavjud ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, bu arab manbalarida “maristan” so'ziga shifoxona sifatida tez-tez murojaat qilish orqali qo'llab-quvvatlangan. Biroq, “maristan” so'zining asl kelib chiqishi ko'proq forscha “bemoriston” so'zining ayni nusxasidir.

Islomdan keyingi davrda arab tilida shifoxona so'zi “Dor ash-Shifo” yoki ko'proq zamonaviy holda “mustashfj” bo'lgan. Bu kasalxonaga ijobiy qarash bo'lib, tom adabiy ma'noda shifo beruvchi joy yoki uy ma'nosini anglatadi.

Islom olamidagi shifoxonalar, ularning vazifalari haqida bugunga qadar bir qator tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay, “bemoriston”larning tashkil etilishi va faoliyati haqida ma'lumotlar yetarli emas.

IX-XIII asrlarda musulmon olamida “bemoriston” – shifoxonalar faoliyati yanada jadallashgan. Ularning ta'minoti vaqf tomonidan amalga oshirilgan. Shu o'rinda qayd etish kerakki,

X asrda asos solingan Bag'doddagi Adudiy shifoxonasi, XII asrda qurilgan Damashqdagi Nuriy shifoxonasi (milodiy 1154-yilda asos solingan) va XIII asrda Kohiradagi Mansuriy shifoxonalarini (milodiy 1283-yilda asos solingan) o'rta asrdagi eng katta bemoristonlardan bo'lgan. Ular barqaror faoliyati bilan eng uzoq davom etgan kasalxonalardan sanalgan. Bu haqda ko'plab tarixiy manbalarda ularning nomi eng ko'p qayd etilganini ko'rish mumkin. Ayni paytda ushbu shifo maskanlari boshqa “bemoriston”lardan ajralib turadi (Howard R., 1995).

ASOSIY QISM

O'rta asr musulmon Sharqida shifoxonalar vaqf tomonidan ta'minlangan. O'sha davrda vaqf musulmon dunyosida shifoxonalar tashkil etishda muhim model hisoblangan. Ushbu davrda musulmon

olami ko'plab tibbiy yordam muassasalarining barpo etilishi hamda ularning barqarorligi, xizmat sifati va aholi uchun qulayligini ta'minlashda katta muvaffaqiyatga erishgan.

VII asr Vizantiyadagi shifoxona bilan Madinadagi Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) tomonidan tashkil etilgan shifoxonani taqqoslash mumkin emas. Chunki o'sha paytda Arabistonda shifoxonalarning mavjudligini ko'rsatuvchi dalillar mavjud emas. Biroq, bundan IX asrda shifoxonalar bo'lmagan degan xulosaga kelish ham o'rinsiz. Chunki davolash markazlarini Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) mavjud bo'lgan shifoxonalar asosida tashkil etgan.

Islom tibbiyoti tarixchisi Maykl Dols shifoxonani "bemorlarga uzoq vaqt davomida parvarish qiladigan xayriya muassasasi" deb ta'riflaydi (Michael W. Dols, 1987:385). Hozirgi kunda G'arb davlatlaridagi zamonaviy shifoxonalar xususiy, shoshilinch va tez muddatli parvarishni ta'minlaydigan shaxsiy, eksklyuziv, foyda keltiradigan tashkilotlar hisoblanadi. Michael W. Dols islom olamidagi shifoxonalarni esa ommaviy, xayriya asosida faoliyat olib boradigan va uzoq vaqt davomida xizmat qiladigan tashkilot sifatida ta'riflaydi.

XIII–XIV asr Misr tarixchisi Maqriziy aniq sanasini keltirmasa-da, islom olamida tom ma'nodagi birinchi shifoxona Misrlik podshoh Manaqyush yoki uning o'g'li tomonidan qurilgan deb aytadi (Taqiyuddin al-Muqriziy, 1997).

Xristian xayriya shifoxonalari sonining o'sishi Vizantiyadagi siyosiy ta'qiblar va siyosiy qochoqlar sonining o'sishi bilan bog'liq bo'lib, bu narsa diniy va siyosiy muhojirlar to'lqinini Fors o'lkasiga qochishiga sabab bo'ldi (Michael W. Dols, 1987:374–376). Bu muxojirlar Forsda Sharqiy Cherkov saxovatpeshaligiga asos solishda va islom shifoxonalari tamal toshi bo'lib xizmat qilgan ajdodi bo'lmish Gundishapur shifoxonasiga asos solishdi.

Forsda tashkil etilgan yana bir bilim markazi, bu migrasiya natijasida zamonaviy Turkiya va Suriya o'rtasidagi chegara shaharchasi Nisibis shahri edi. Nisibis shahrida shifokorlar diniy ta'lim muassasalarida tibbiy tayyorgarlikni olishdi, ammo milodiy VI asr davomida tibbiy matnlarni o'qish amaliyoti cheklab qo'yildi (Ahmad Isobek, 1981).

Islomdan avvalgi Arabiston yarimoroli sehr va dori vositalari elementlarini o'z ichiga olgan xalq tabobati markazi bo'lgan. Ushbu markaz asosan

xalq tabobati bilan shug'ullangan (Dunlop, 134–136). Arabistonda islomga qadar biror shifoxona bo'lganligiga hech qanday dalil yo'q. Keyinchalik, Gundishapur va Iskandariyani bitirib kelgan arabistonlik Haris ibn Kalda Taqafiy, uning o'g'li Nasr Ibn Haris va Abd Malik Ibn Abjar Kinoniy islom yuksalishi davrida amaliyotchi shifokorlar sifatida mashhur bo'lganlar.

Hindiston, Vizantiya va Fors (Turner, 1983:131–132) kabi bir qator mintaqalarda shifoxonalar paydo bo'lishiga qaramay, islomdan avvalgi davrda shifoxonalar kamyob hodisa bo'lgan. Shuningdek, dori kasallikni yengishning asosiy vositasi hisoblanmagan.

Birinchi hijriy asrdagi islomning yoyilishi tibbiy merosning (Rafat Jan, 1996:267–268) keng doirada tarqalishiga imkon berdi va bu islom tarixida shifoxonalar rivojlanishi uchun asos sifatida xizmat qildi.

Tarixiy manba va tadqiqotlarda qayd etilishicha, IX–XIII asrda Bag'dodda va musulmon dunyosida shifoxonalar turli omillarga asosan taraqqiy etganini ko'rish mumkin:

– birinchisi, ichki tomondan bo'lib, dastlabki islom tibbiyot muassasasi Madinadagi masjid chegarasida o'rnatilgan chodirda Rufayda (r.a.) ismli ayol Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) tomonidan tayinlangan bo'lib, u yerda qurilgan chodirda jarohatlanganlarni davolash va ularga g'amxo'rlik qilar edi. U ayol boshchiligidagi hamshiralar jamoasini Payg'ambarning (s.a.v.) yurishlari davrida unga hamrohlik qilish uchun tayyorlagan;

– ikkinchisi, tashqi tomondan bo'lib, tarixchilar o'rtasidagi munozaralar hisoblanadi. Xususan, Bemariston kelib chiqish ildizi nazariy tarafdin forscha so'z bo'lib, xususan, Gundishapur shahriga borib taqaladi. Gundishapur o'z navbatida islom shifoxonalari uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Bir qator olimlar tomonidan shifoxonalarning islomda yuksalishida asosiy ta'sir ko'rsatgan Gundishapur shahri milodiy III asrda Sosoniylar shohi Shopur I tomonidan asos solingan va Eronning Xuziston (Shapur Shahbazi, 2012) viloyatidagi zamonaviy Dizful shahridan 14 km. janubi-sharqda joylashgan edi. Asli kelib chiqishi suriyalik xristian oilasidan bo'lmish Baxtishular Bag'dod Abbosiylar xalifaligining poytaxti bo'lganidan keyin Gundishapurdan chaqirib olingan (Lutz Richter-Bernburg, 1282). Uch avloddan so'ng Jabroil Ibn Baxtishu milodiy IX asr boshlarida Horun Rashidning iltimosiga ko'ra birinchi bo'lib shifoxona ochgan

(Dunlop, yili ko'rsatilmagan). Baxtishular va birinchi shifoxonaning tashkil topishi o'rtasidagi bog'liqlik bu nazariya uchun juda muhimdir (Andrew C Miller, 2006:615–616).

MUHOKAMA

Gundishapurga jug'rofiy yaqin joylashgan Fors shahri bo'lgan Susada hind va yunon tibbiyoti elementlarini o'z ichiga olgan bilimlar bazasiga ega Forsdagi dorixona (Pormann and Savage-Smith, yili ko'rsatilmagan:20) va tibbiyotning eng yaxshi amaliyotchilari joylashgan edi (Michael W. Dols, 1987:377–378). Xuddi shunday holda hozirgi Turkiya va Suriya chegarasida joylashgan Nisibis shahri ham bilim markazi bo'lib xizmat qilgan. Nisibis xristian maktabi bilan bog'liq xenodocheion deb nomlanuvchi shifoxonaga ega edi. VI asr Forsdagi xristian xenodocheion “tibbiyot muassasasi ... tibbiy xodimlar bilan” (Michael W. Dols, 1987:373), deya ta'riflangan va VIII asr xristian patriarxi Timofeyning ilk islom matnida bemariston iborasi bilan tasvirlangan (Michael W. Dols, 1987:379). Shu sababli, xristian xenodocheionlari islom shifoxonalarining bevosita ajdodi bo'lgan deb tahmin qilinadi. Xenodocheion butun Sosoniylar imperiyasida suriyalik xristian instituti sifatida tanilgan (Michael W. Dols, 1987:376). Bu shuni ko'rsatadiki, islom shifoxonasining belgilari to'g'ridan-to'g'ri Fors chegaralarida mavjud xristian va suriyalik xayriya xenodocheionlari bo'lgan. Ammo, Suriyalik xenodocheiondan ko'ra forscha “Bemoriston” atamasining ko'proq qo'llanishi bu atama asl fors tilidan kelib chiqqan degan fikrni ilgari suradi.

Keyingi tadqiqotlar islom shifoxonasiga boshqa ta'sirlarni ham ko'rsatadi. O'sha davrda islom jamiyati turli tibbiy merosga ega katta geografik hududni o'z ichiga olgan.

Ilgari tashkil etilgan bunday muassasalarga qaramay, musulmon dunyosida shifoxonalar IX asr boshlariga kelib ko'paydi. Bemoriston atamasi ham aynan shu davrda arab tiliga forscha manbadan kirib kelgan, deguvchilar ham bor. Bu davrning birinchi shifoxonasi Bag'doddagi Jibril ibn Baxtishuga tegishli bo'lgan. U “Bemaristan al-A'tiq” nomi bilan mashhur bo'lib, uning qurilishini Horun Rashid buyurgan, deb hisoblaydilar (Dunlop, 134–135).

Yuqoridagi da'vo bahsli bo'lib, Horun Rashid hukmronligi davrida bu shifoxonani qurish ishi Barmakiylar bilan bog'liqdir. Barmakiylar asli

buddaviy oila bo'lib, hozirgi Afg'onistondagi Balxdan Bag'dodga ko'chib borgan. Ular Abbosiylarning yirik ishlari, ma'muriy idoralari va harbiy yurishlarini boshqarganlar (Kevin Van Bladel, 2013). Yahyo Ibn Xolid va uning avlodlari Horun ar-Rashid ularni quvg'in qilishni buyurmaguncha deyarli imperiyani boshqarib turishgan. Bag'dodda birinchi marta milodiy VIII asrda Karx chekkasida shifoxona tashkil etgan Yahyo Ibn Xolid Barmakiy edi. Barmakiylar shifoxonasi va uning asoschilari nomi tarix sahifalaridan o'chirilgan, “Eski shifoxona” nomi bilan mashhur bo'lgan shifoxonani asossiz ravishda Horun Rashidga berilgan, shifoxona esa, Gundishapur saroy tabiblariga berilgan.

Barmakiy shifoxonasi fors-hind tibbiyoti bilan shug'ullangan. Buni bir qancha omillar tasdiqlaydi: birinchidan, shifoxonani hind shifokori Ibn Dahn al-Hindiy boshqargan, u ko'plab sanskrit tibbiy matnlarini arab tiliga tarjima qilishga yordam bergan (Michael W. Dols, 1987:383). Ikkinchidan, Barmakiylar shifoxonasidagi boshqa tabiblar Hindistondan Bag'dodga olib kelingan. Shifoxonaning bu fors-hind tabiati Abbosiylar saroyida hokimiyatni monopoliya qilish uchun xristian suriyaliklar tomonidan Yunon tibbiyoti bilan almashtirildi. Xristian seminariyalari va shifoxonalarida Galen tibbiyotining mashhurligi xristian suriyaliklarning tibbiyot sohasidagi ustunligini ta'minladi (Michael W. Dols, 1987:385).

Garchi Horun ar-Rashid shifoxonasi va Barmakiylar shifoxonasi yagona va bir xil deb hisoblansa-da, ular Bag'doddagi ikki xil yo'nalishdagi shifoxona bo'lganligi tahmin qilinadi. Horun ar-Rashid Barmakiylardan tortib olgan shifoxonadan boshqa qo'shimcha shifoxona tashkil etgan bo'lishi mumkin. Al-Amiliy va Iso har ikki shifoxonani alohida shifoxonalar (Ahmad Isobek, 1981:94) sifatida mavjudligini ta'riflaydilar.

O'z faoliyatining birinchi asrida shifoxonalar Bag'dodda va undan tashqarida gullab-yashnadi. Bag'dodda bir asr davomida to'rtta qo'shimcha shifoxona qurilgan (Emilie Savage-Smith, 1994).

Milodiy 1160-yilda Andalusiyaalik ravvin Benjamin Tudela Kordovadagi ellikdan ortiq shifoxonani va Bag'doddagi oltmishdan ortiq shifoxonani aniqlagan (François P., 2005:227). Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, islom olamida yirik tibbiyot muassasalari vazifasini bajaruvchi barqaror moliyalash manbasiga ega yirik shifoxonalar soni 34 tani tashkil etgan (Retief, Cilliers, yili ko'rsatilmagan:135). Dols hatto, shifoxonalar faqat yirik shaharlarda mavjud bir nechta monumental

tuzilmalar ekanligini ta'kidlaydi (Michael W. Dols, 1987:387). Biroq, Ibn Jubayrning milodiy 1183–1185-yillardagi Suriya haqidagi ma'lumotlari shifoxonasiz deyarli shahar bo'lmaganligini ko'rsatadi. Bu milodiy XII asrga kelib shifoxonalar har bir yirik musulmon shaharchasining muhim xususiyatiga aylanganini ko'rsatadi (Conrad, yili ko'rsatilmagan:137–138). Shifoxonaning mavjudligi o'sha paytda qishloq va shahar dunyosini ajratib turuvchi vosita edi, chunki har bir shahar markazida kattaligidan qat'i nazar, shifoxona mavjud edi. Ular jamoat sog'liqni saqlash choralarining kengroq bir qismi sifatida mavjud bo'lgan (Pormann and Savage-Smith, yili ko'rsatilmagan:101).

Islomdan oldin Vizantiya imperiyasida kommunal xizmatlar, jumladan, sog'liqni saqlash muassasalari uchun yer loyihalari tarmog'i mavjud edi. Bu yerlar vaqf qilingan, ularning mablag'lari cherkov tomonidan yig'ilib, taqsimlangan. Shifoxonalar tibbiy yordam bilan birga diniy da'vatlarni olib borgan va diniy institutlar va cherkovlarga biriktirilgan. Fuqarolar shaxsiy hisobidan ushbu xayriyalarni qisman moliyalashtirganiga qaramay, ijtimoiy va xayriya muassasalarini boshqarish ruhoniylarga yuklangan.

Ilk islom davrida vaqf shahar mulki bilan chegaralangan, ayniqsa, bu shifoxonalar tizimida ko'rinadi. Shifoxonaga shahar va qishloq mulklarini birlashtirgan birinchi kishi Fotimiy Hakim edi. Uning ushbu aralash xayriya jamg'armasidan maqsadi shahar mulki uchun xavf xayriya institutining uzluksizligiga tahdid solmasligini ta'minlash edi (Lev, nashr yili ko'rsatilmagan:70).

Islomda vaqf avvalgi xayriyalarga qaraganda kengroq spektrni o'z ichiga olgan. Chunki u turli maqsadlarda, jumladan, diniy, siyosiy yoki ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, sog'liqni saqlash uchun vaqf berishga ruxsat bergan. IX-XIII asrlarda vaqflar davlat amaldorlari, tabiblar, hukmdorlar va qozilar tomonidan amalga oshirilgan yoki boshqarilgan. Har ikki jins vakillari ham millati va e'tiqodidan qat'i nazar vaqf tashkil etish va uni boshqarishda erkin edi. Bu orqali shifoxona jamiyatda nisbatan "dunyoviy" o'ringa ega bo'ldi va islomdan avvalgi holatga qaraganda yaxshiroq moliyalashtirildi (Michael W. Dols, 1987:387).

Vaqf beruvchi, ya'ni voqifning ma'lum iqtisodiy, ijtimoiy yoki diniy kelib chiqishi uchun qonuniy talablar bo'lmas-da, shifoxonalar uchun vaqflar odatda erkak musulmon xalifalar, sultonlar yoki boshqa hukmdorlar tomonidan ta'sis etilgan. Ayollar ham bu jarayonda ishtirok etganlar,

masalan, X asrning mashhur tabibi Sinon Ibn Sobit xalifa al-Muqtadir tomonidan qurilgan shifoxona Muqtadiriy va milodiy 918-yilda xalifaning onasi as-Sayyida Shag'ob tomonidan asos solingan shifoxona as-Sayyida uchun mas'ul edi (Ibn Kasir, 1998:141). Bundan tashqari, XIII asrda Kirmonning Fors hukmdori Terken Xotun erining milodiy 1257-yilda vafotidan keyin zarur yordam uchun vaqf xayriyalaridan foydalangan (Ann K., 2013). Bu borada hukmdorlar tomonidan xayriya sifatida tashkil etilgan Adudiy, Nuriy va Mansuriy shifoxonalari, mos ravishda milodiy 982-yilda Adud Davla, milodiy 1017-yilda Nuruddin va milodiy 1013-yilda Mansur Qalavun shifoxonalarini misol qilib keltirish mumkin.

Hukumat rasmiylari shifoxonani ta'mirlash va kengaytirishga ham hissa qo'shganlar. XIV asrning birinchi choragida Iordaniyadagi Qorak hokimi amir (shahzoda) Jamoliddin Oqush Mansuriy shifoxonasini ta'mirlash va kengaytirishni moliyalashtirdi. U qo'shimcha shifoxona bo'limini biriktirdi, shifoxonaning ichki va tashqi devorlarini yangi holatda paydo bo'lguncha g'isht bilan qopladi. U shuningdek, majmuadagi hovuz o'rniga yangi chuchuk suv favvorasi qurdirdi. Maqriziyning ta'kidlashicha, bu mablag'larning barchasi Qalavun majmuasining vaqf daromadidan emas, balki Jamoliddin Oqushning shaxsiy hissasi bo'lgan (Taqiyuddin al-Muqriziy, 1997:89).

Shifokorlar ta'lim davrida shifoxona muassasalarida muhim rol o'ynagan (Sigrid Hunke, 1964). Sinon Ibn Sobit X asr Bag'doddagi shifoxonalarga ta'sir ko'rsatgan, uning davrida beshdan ortiq shifoxonalar uning maslahati yoki uning tibbiy boshqaruvi ostida qurilgan. U milodiy 1288-yilda vafot etgach, Misrga hijrat qilgan mashhur suriyalik tabib Ibn Nafis uning uyini va butun kitoblar to'plamini yangi tashkil etilgan Mansuriy shifoxonasiga hadya qilgan (Ibn Vardi, 1971). Bu hisob musulmon tabiblarining boyligidan dalolat beradi, chunki islom qonunlarida musulmon merosining uchdan ikki qismini majburiy bo'lishni belgilab qo'yilgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, vasiyat qiluvchi o'z mol-mulkining ko'pi bilan uchdan bir qismini ixtiyoriy ravishda vasiyat qilishi mumkin, uning qarzlari va dafn xarajatlari bundan mustasno (David S., 1993:14). Demak, Ibn Nafis katta boylikka ega tabib bo'lgan. Boshqa shifokorlar ham islom davrida shifoxona asoslari yoki vaqflarida markaziy shaxslar bo'lib xizmat qilganlar.

Qohirada oftalmolog Shihobuddin 1171-yilda Siqotiyin bozorida shifoxona tashkil qilgan. Shifoxona uning o'limidan so'ng moliyaviy cheklanganligi sababli tez orada tugatilgan (Sabra, yili ko'rsatilmagan:74). Badruddin Tabib 1239-yilda qo'shni mulklarni xususiy sotib olib, ularni eng yuqori talablarga muvofiq qurish orqali allaqachon mavjud bo'lgan Damashqning Nuriy shifoxonasi bo'limlarini kengaytirish ustida ishladi (Shamsiddin Zahabiy, 1997:213). Bu usul yanada muvaffaqiyatli bo'ldi, chunki Badridin va Ibn Nafisning hissalarini ularning o'zlaridan keyin ham ancha uzoq davom etdi. Garchi shifokorlar shifoxonalar uchun vaqf sababchilari bo'lib xizmat qilgan bo'lsalar ham, ularning daromadlari va badallari cheklangan edi. Shifokorlar shifoxonani ta'mirlash yoki kengaytirishni qo'llab-quvvatlashga muvaffaq bo'lishdi, lekin mustaqil ravishda shifoxona tashkil etish uchun moliyaviy va siyosiy imkoniyatlari cheklangan edi.

Shifokorlar, hukmdorlar va davlat amaldorlari shifoxona vaqflarini tashkil etishdi. Bu muhim bo'lib, vaqf beruvchi (voqif)ni o'rganish ular shifoxonani nima uchun qurishlarini tushunish uchun zarurdir. Voqiflar mana shu uch sohaning yuksak saviyali odamlari bo'lishlari, shifoxonalar tibbiy va siyosiy sabablar natijasida qurilgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Abbosiylar davridagi shifoxonalarning dastlabki mudirlari tibbiyot sohasidagi tabiblar bo'lgan. Ibn Ya'qub Damashqiy Bag'doddagi barcha shifoxonalarning bosh shifokori bo'lgan paytda Bag'doddagi shifoxonaga rahbarlik qilgan. Sinon Ibn Sobit Bag'dod, Makka, Madina va Tarsusdagi barcha shahar shifoxonalari mas'ul bo'lgan. Bundan tashqari Bag'dodning oltinchi shifoxonasi – al-Muqtadiriy shifoxonasini qurish uchun xalifalar shaxsiy mablag'lari hisobidan 200 dinor yordam bergan. Bu uslub hatto, Bag'doddagi keyingi avlodlarda ham davom etgan (Cyril Elgood, 1932:131–133).

Shifoxona boshqaruvi keyinchalik diniy ulamolar yoki qozilar tomonidan amalga oshirilgan. Masalan, Bag'dodiy musavvir Abu Bakr Ibn Abu Tohir (vafoti 1140-yil) Qozi Mariston (Shifoxona qozisi) unvoni bilan mashhur bo'lgan, chunki u bir qancha-yillar davomida al-Adudiy shifoxonasida ma'mur bo'lib xizmat qilish bilan boshqa fanlar va ishlarni ham bajargan (Shamsiddin Zahabiy, 1997). Xuddi shunday holda, Aminuddin Yusuf Rumi milodiy 1300-yillarning boshlarida bir vaqtning o'zida Damashqning muhtasib (bozor nazoratchisi) va Nuriyning shifoxonasining noziri bo'lib xizmat qilgan (Badruddin Ayniy, 1891:594).

X asrning birinchi shifoxonasi qurilishi al-Muqtadir davrida sodir bo'lgan. Vazir Ali ibn Iso Bag'dodning Harbiya tumanida 914-yilda shifoxona qurirdi. Undan keyin asr oxiriga kelib yana beshta shifoxona qurildi. 918-yilda as-Sayyida shifoxonasi va al-Muqtadiriy shifoxonasi, 923-yilda Ibn Furot shifoxonasi, 941-yilda Bajkam va 982-yilda al-Adudiy shifoxonalari qurildi.

Milodiy X asrda Azud ad-Davla Fanaxusru Fors va Iroq hukmdori bo'lgan. Azud ad-Davla siyosiy faoliyatini 14 yoshida Sherozda boshlagan va milodiy 957-yilda Isfahonni, 967-968-yillarda Umon va Kirmonni, 976-yilda Bag'dod va Iroqni egallagan (John J., 2013). Al-Adudiy shifoxonasi milodiy 982-yilda 48 yoshida vafot etgan-yili qurilgan (Bürgel Ch., Mottahedeh R., 1988). Al-Adudiy shifoxonasi Bag'dodda 941-yilda Bajkam shifoxonasidan keyin qurib bitkazilgan birinchi shifoxona hisoblangan (Ibn Kasir, 1988:11).

Azudiy shifoxonasi 982-yilda qurilganida unda jami 25 tabib, shu jumladan ko'z shifokorlari (kahhalun), jarrohlar (jarrohun) va suyak teruvchilar (mujabbirunlar) faoliyat olib borgan (Dunlop, 2013). Milodiy 1067-yilda ta'mirlanganidan keyin ularning soni 28 taga ko'paydi (Pormann and Savage-Smith, 2007:98). Benjamin Tudela 1171-yilda jami 60 tabib bo'lganligi haqida hikoya qiladi (A. Duri, 2013). Azud al-Davla shifoxonasida, shuningdek, hamshiralar, omborchilar, darvozabonlar, ma'muriy xodimlar va nazoratchilar ham ishlaganlar. Shifoxona to'liq jihozlangan, barcha zarur jihoz va dori-darmonlar bilan ta'minlagan (Ibn Juzay, 1971:289).

Sinon ibn Sobit Bag'dod va uning barcha shifoxonalari bosh tabibi bo'lgan (Ibn Kasir, 1998:11). Sinon 908-yildan to 943-yilda vafotigacha boshqa tibbiy vazifalarni ham bajargan. U uchta Abbosiy xalifasi: Muqtadir (908–932), Qohir (932–934) va Rodiyning (934–940) saroy tabibi bo'lgan (Yvonne Dold-Samplonius, 2008).

Azud al-Davla 983-yilda Bag'doddagi eng katta shifoxona barpo etdi. Bu u qurdirgan uchinchi shifoxona bo'lib, u olti-sakkiz-yil avval Sheroz va Isfahonda shifoxonalar qurgan edi. Sherozdagi Azudiy shifoxonasi universitet majmuasi tarkibida qurilgan (Cyril Elgood, 1932:159–172).

NATIJA

X asr Bag'dodda bemorlar yoki xodimlarning diniy mansubligi bo'yicha hech qanday cheklovlar bo'lmagan. X asr Bag'dodda tibbiy yordam ko'rsatishda yahudiylar va nasroniylar ustunlik

qilgan. Muqtadir musulmon bo‘lmaganlarni barcha rasmiy lavozimlarda ishlashni taqiqlab qo‘ygan, ammo istisno sifatida buni shifokorlarga nisbatan tatbiq etmagan (Pormann and Savage-Smith, 2007:102). Shuningdek, Ali ibn Abbos Majusiy (Zardushtiy) Ahmad ad-Davlaning tabibi (Baron Carra De Vaux, 1993:741) bo‘lgan, Hibat ismli nasroniy tabibi esa shifoxonada ishlagan (Cyril Elgood, 1932:165). Bulardan tashqari qator musulmon bo‘lmagan tabiblar Adudiy shifoxonasida ishlaganlar (Ahmad Isobek, 1981:321). Ahmad ad-Davla nasroniy bo‘lgan Nasr ibn Horunni ham o‘ziga vazir etib tayinlagan (Bürgel and Mottahedeh, 2021).

X asr Bag‘dodda ayollar kasalliklari haqida dalillar mavjud, biroq al-Adudiy shifoxonasi ayol bemorlarni joylashtirgan yoki yo‘qligi to‘g‘risida aniq ma’lumot yo‘q. Biroq, ar-Roziy bir qator amaliy tadqiqotlarda ayol tabiblar borligini ta’kidlab o‘tgan.

Nuriddin Mahmud Ibn Zandiy XII asr o‘rtalarida turk hukmdori va salibchilarga qarshi musulmon qo‘shinlarining qo‘mondoni bo‘lgan. Uning hukmronligi davrida Suriya birlashtirilgan. Mashhur Salohiddin Ayyubiy Misrda uning qo‘l ostidagi shaxs hisoblangan. Nuriddin 1146–1174-yillarda Suriyada ikkita shifoxona qurgan. Halab (Aleppo) Nuriy shifoxonasini va 1154-yilda Damashq Nuriy shifoxonasini qurdirgan. Nuriy shifoxonasi bemorlarning tibbiy yozuvlarini yuritadigan birinchi shifoxona hisoblanadi. U XIII asr musulmon dunyosining eng muhim tibbiyot markaziga aylandi. An-Nuriy shifoxonasi XIX asrgacha shifoxona sifatida faoliyat yuritgan. Bugungi kunda shifoxona tibbiyot tarixi muzeyidir (Pormann and Savage-Smith, 2007:98–99).

Nuriy shifoxonasida tabiblar, dorishunoslar, ko‘z shifokorlari, nozir va vaqfning bosh ma‘muri kabi ko‘plab xodimlar ishlagan. Shifoxona Nuriddinning dushman ustidan qozongan g‘alabasi sharafiga Damashqda asir bo‘lgan Yevropa qirolini ozod qilishdan olingan mablag‘lar hisobidan qurilgan (Shamsiddin Zahabiy, 1997:23). Xuddi shu kabi g‘alaba hisobiga qurilgan shifoxonalardan biri Ibrohim ibn Nasr shifoxonasi bo‘lib, u 1066-yilda Samarqandda qurilgan.

Nuriy shifoxonasida ham tabiblar va bemorlarning diniy mansubligi bo‘yicha hech qanday cheklovlar bo‘lmagan. Xususan, nasroniy tabibi Ibn Ibriy keyinchalik ruhoni bo‘lgan va Yoqubiyar mitropoliti (Cyril Elgood, 1932:306) sifatida faoliyat olib borgan.

XULOSA

Xulosa sifatida aytishimiz kerakki, islom ta’limoti bo‘yicha sahobalar kasallikni davolashda asosan Rasululloh (s.a.v.)ning ko‘rsatmalariga amal qilishgan. Ya’ni, davolashda bir qultum asal, xijoma va zarurat bo‘lganda kauterizasiyadan foydalananganlar. Davolash usullari sifatida, shuningdek, X-XI asrlarda musulmon tabiblari Abu Bakr Roziy va Ibn Sino kasallikning oldini olish uchun toza havo, yorug‘likdan to‘g‘ri foydalanishni ham keltirishadi. Islomda poklik va gigiena bo‘yicha juda aniq qoidalar va qonunlar mavjud bo‘lib, unda poklikka juda katta ahamiyat berilgan. Hammomlar har bir shaharda bo‘lgan va jamiyatning barcha qatlamlari ushbu hammomlardan foydalananganlar. Kasallikning oldini olish imkonsiz bo‘lganda birinchi davolash usuli parhez, ya’ni ro‘za tutish hisoblangan. Tadqiqotda islomda poklik, gigiena, kasallikni oldini olishga oid qarashlar tahlil qilingan.

Islom mamlakatlarida shifoxonalarning tashkil etilishi dastlab dunyoviy va xayriya maqsadida bo‘lib, epidemiyalarning kuchayishiga qarshi xizmat qilgan. Musulmon dunyosidagi birinchi shifoxona xalifa al-Valid davrida 707-yilda qurilgan bo‘lib, moxov bilan kasallangan bemorlar uchun boshpana hisoblangan. Keyinchalik xalifalikda ruhiy kasallar, ko‘rlar va qariyalar uchun boshpana sifatida faoliyat olib borgan. O‘rta asr musulmon Sharqida shifoxonalar vaqf tomonidan ta’minlangan bo‘lib, X asr Bag‘dodda bemorlar yoki xodimlarning diniy mansubligi bo‘yicha hech qanday cheklovlar bo‘lmagan.

МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР

1. Taqiyuddin al-Muqriyiy. (1997). Al-Mavaiz val e'tibor bizikril xutot val osor. Bayrut: Dorul kutub al-ilmiyya.
2. Shamsiddin Zahabiy. (1997). Tariyxul islom va vafayot al-mashohir val a'lam. Bayrut: Dorul kutub arabiy.
3. Ibn Kasir. (1998). Al-Bidoya van nihoya. Bayrut, Dor ihyaut turos al-arobiy.
4. Ibn Xaldun. (1988). Tarixu Ibn Xaldun. Bayrut: Dorul fikr.
5. Ahmad Isobek. (1981). Tariyxul bemoriston fil islom. Qohira: Dar ar-Roid al-arobiy.
6. Ibn Abi Usaybiya. (1891). Uyunul anbo fi tobaqot al-atibbo. Bayrut: Maktaba dorul hayat.
7. Muhammad Boqir Majlisiy. (1897). Biharul anvor. Bayrut: Muassasa al-vafo.
8. Ibn Kasir. (1998). Al-Bidoya van nihoya. Bayrut, Dor ihyaut turos al-arobiy.
9. Izzuddin ibn Asir. (1881). al-Kamil fit-tarix. Bayrut: Darul kitob al-arobiy.

10. Ibn Javziy. (1971). *Al-Muntazam fiy tariyxil umam val muluk*, Bayrut: Darul kitob al-ilmiiyya.
11. Shamsiddin Zahabiy. (1997). *Tariyxul islam va vafayot al-mashahir val a'lam*. Bayrut: Dorul kutub arobiy.
12. Ibn al-Vardiyy. (1971). *Tariyxu ibn al-Vardiyy*, Bayrut: Darul kutub al-ilmiiyya.
13. Badruddin Ayniy. (1891). *Aqdul jimon fiy tariyx ahl az-zamon*. Qohira; Hay'at al-Misriyya al-Omma lil-kitob. 1891.
14. Sigrid Hunke. (1964). *Shams al-arob tastatiy'u ala al-g'orb*. Bayrut: Dor as-sodr.
15. Ja'far Murtazo Amoliy. (1983). *al-Odob at-tibbiyya fil islam ma'a lamha an tariyx at-tib*. Qohira: Jamiatul mudarrisin fil havzaal-ilmiiyya.
16. Michael W. Dols. (1987). *The Origins of the Islamic Hospital: Myth and Reality*. *Bulletin of the History of Medicine* 61, no. 3.
17. Lawrence I. Conrad. (1995). *The Arab-Islamic Medical Tradition. In The Western Medical Tradition: 800 Bc to Ad 1800*.
18. Anand J. (2007). *Etymology of the Word 'Bimaristan'*, *Journal of the royal society of Medicine* 100, no. 2.
19. Howard R. (1995). *Turner, Science in Medieval Islam: An Illustrated Introduction*.
20. Dunlop. (2013). *Bimaristan in Early Period and Muslim East*. McGrew, Hospital.
21. Turner. (1997). *Science in Medieval Islam: An Illustrated Introduction*.
22. Rafat Jan. (1996). *Rufaida Al-Asalmiya, the First Muslim Nurse*, *Image: the Journal of Nursing Scholarship* 28, no. 3.
23. Shapur Shahbazi. (2012). *Gondešapur: The City*, in *Encyclopaedia Iranica*, ed. Ehsan Yarshater .
24. Andrew C Miller. (2006). *Jundi-Shapur, Bimaristans, and the Rise of Academic Medical Centres*. *Journal of the Royal Society of Medicine*.
25. Pormann and Savage-Smith. (2007). *Medieval Islamic Medicine*.
26. Kevin Van Bladel. (2013). *Barmakids*, in *Encyclopaedia of Islam, THREE*, ed. Gudrun Krämer, et al.
27. Emilie Savage-Smith. (1994). *Islamic Culture and the Medical Arts*. http://www.nlm.nih.gov/exhibition/islamic_medical/index.html.
28. François P. Retief and Louise Cilliers. (2005). *The Evolution of Hospitals from Antiquity to the Renaissance Acta Theologica Supplementum*.
29. Retief and Cilliers. (the year of publication is not indicated). *The Evolution of Hospitals from Antiquity to the Renaissance*.
30. Lev. (the year of publication is not indicated). *Charity, Endowments, and Charitable Institutions in Medieval Islam*.
31. Abu Bakr Al-Khassaf. (2008). *A Ninth Century Treatise on the Law of Trusts (Being a Translation of Al-Khassaf, Ahkam Al-Waquf)*, trans. Gilbert Paul Verbit .
32. Ann K.S. Lambton. (2013). *Wakf in Persia*, in *Encyclopaedia of Islam, Second Edition*, ed. P. Bearman, et al.
33. David S. Powers. (1993). *The Islamic Inheritance System: A Socio-Historical Approach*, *Arab Law Quarterly* 8, no. 1.
34. Sabra. (2001). *Poverty and Charity in Medieval Islam: Mamluk Egypt, 1250–1517*.
35. Cyril Elgood. (1932). *A Medical History of Persia and the Eastern Caliphate: From the Earliest Times until the Year A.D.*
36. John J. Donohue. (2013). *A.ud Al-Dawla*, in *Encyclopaedia of Islam, THREE*, ed. Gudrun Krämer, et al.
37. Bürgel Ch. and Mottahedeh R., (1988). *A'od-Al-Dawla*, in *Encyclopaedia Iranica*.
38. Duri A., (2013). *Ba Hdād*. in *Encyclopaedia of Islam, Second Edition*, ed. P. Bearman, et al.
39. Yvonne Dold-Samplonius. (2008). *Sinan Ibn Thabit Ibn Qurra, Abi Sa'ed*, in *Complete Dictionary of Scientific Biography (Detroit: Charles Scribner's Sons*.
40. Baron Carra De Vaux. (1993). *Ṭibb*, in *First Encyclopaedia of Islam: 1913–1936*, ed. T. Houtsma.
41. Huff. (the year of publication is not indicated). *The Rise of Early Modern Science: Islam, China, and the W*

REFERENCES

1. Taqiyuddin al-Muqrizi. (1997). *Al-Mawaiz wal i'tibar bi dhikril khutat wal athar*. Beirut: Darul kutub al-ilmiiyya.
2. Shamsuddin Dhahabi. (1997). *Tarikhul islam wa wafayat al-mashahir wal a'lam*. Beirut: Darul kutub arabi.
3. Ibn Kathir. (1998). *Al-Bidaya wan nihaya*. Beirut, Dar ihya at-turath al-arabi.
4. Ibn Khaldun. (1988). *Tarikhu Ibn Khaldun*. Beirut: Darul fikr.
5. Ahmad Isabek. (1981). *Tarikhul bimaristan fil islam*. Cairo: Dar ar-Raid al-arabi.
6. Ibn Abi Usaybia. (1891). *Uyunul anba fi tabaqat al-atibba*. Beirut: Maktaba darul hayat.
7. Muhammad Baqir Majlisi. (1897). *Biharul anwar*. Beirut: Muassasa al-wafa.
8. Ibn Kathir. (1998). *Al-Bidaya wan-nihaya*. Beirut, Dar ihya at-turath al-arabi.
9. Izzuddin ibn Athir. (1881). *al-Kamil fit tarikh*. Beirut: Darul kitab al-arabi.
10. Ibn Jawzi. (1971). *Al-Muntazam fi tarikhil umam wal muluk*, Beirut: Darul kitab al-ilmiiyya.
11. Shamsuddin Dhahabi. (1997). *Tarikhul islam wa wafayat al-mashahir wal a'lam*. Beirut: Darul kutub arabi.
12. Ibn al-Wardi. (1971). *Tarikhu ibn al-Wardi*, Beirut: Darul kutub al-ilmiiyya.
13. Badruddin Ayni. (1891). *Aqdul jiman fi tarikh ahl az-zaman*. Cairo; Hay'at al-Misriyya al-Umma lil-kitab. 1891.
14. Sigrid Hunke. (1964). *Shams al-arab tastati'u ala al-gharb*. Beirut: Dar as-sadr.

15. Ja'far Murtaza Amali. (1983). *al-Adab at-tibbiyya fil islam ma'a lamha an tarikh at-tib*. Cairo: Jamiatul mudarrisin fil hawza al-ilmiiyya.
16. Michael W. Dols. (1987). *The Origins of the Islamic Hospital: Myth and Reality*. *Bulletin of the History of Medicine* 61, no. 3.
17. Lawrence I. Conrad. (1995). *The Arab-Islamic Medical Tradition*. in *The Western Medical Tradition: 800 Bc to Ad 1800*.
18. Anand J. (2007). *Etymology of the Word 'Bimaristan'*, *Journal of the royal society of Medicine* 100, no. 2.
19. Howard R. (1995). *Turner, Science in Medieval Islam: An Illustrated Introduction*.
20. Dunlop. (2013). *Bimaristan in Early Period and Muslim East*. McGrew, Hospital.
21. Turner. (1997). *Science in Medieval Islam: An Illustrated Introduction*.
22. Rafat Jan. (1996). *Rufa'ida Al-Asalmiya, the First Muslim Nurse*," *Image: the Journal of Nursing Scholarship* 28, no. 3.
23. Shapur Shahbazi. (2012). *Gondešapur: The City*, in *Encyclopaedia Iranica*, ed. Ehsan Yarshater .
24. Andrew C Miller. (2006). *Jundi-Shapur, Bimaristans, and the Rise of Academic Medical Centres*. *Journal of the Royal Society of Medicine*.
25. Pormann and Savage-Smith. (2007). *Medieval Islamic Medicine*.
26. Kevin Van Bladel. (2013). *Barmakids*, in *Encyclopaedia of Islam, THREE*, ed. Gudrun Krämer, et al.
27. Emilie Savage-Smith. (1994). *Islamic Culture and the Medical Arts*. http://www.nlm.nih.gov/exhibition/islamic_medical/index.html.
28. François P. Retief and Louise Cilliers. (2005). *The Evolution of Hospitals from Antiquity to the Renaissance Acta Theologica Supplementum*.
29. Retief and Cilliers. (the year of publication is not indicated). *The Evolution of Hospitals from Antiquity to the Renaissance*.
30. Lev. (the year of publication is not indicated). *Charity, Endowments, and Charitable Institutions in Medieval Islam*.
31. Abu Bakr Al-Khassaf. (2008). *A Ninth Century Treatise on the Law of Trusts (Being a Translation of Al-Khassaf, Ahkam Al-Waquf)*, trans. Gilbert Paul Verbit .
32. Ann K. S. Lambton. (2013). *Wakf in Persia*, in *Encyclopaedia of Islam, Second Edition*, ed. P. Bearman, et al.
33. David S. Powers. (1993). *The Islamic Inheritance System: A Socio-Historical Approach*, *Arab Law Quarterly* 8, no. 1.
34. Sabra. (2001). *Poverty and Charity in Medieval Islam: Mamluk Egypt, 1250-1517*.
35. Cyril Elgood. (1932). *A Medical History of Persia and the Eastern Caliphate: From the Earliest Times until the Year A.D.*
36. John J. Donohue. (2013). *A.ud Al-Dawla*," in *Encyclopaedia of Islam, THREE*, ed. Gudrun Krämer, et al.
37. Bürgel Ch. and Mottahedeh R., (1988). *A'od-Al-Dawla*, in *Encyclopaedia Iranica*.
38. Duri A., (2013). *Ba Hdād*. in *Encyclopaedia of Islam, Second Edition*, ed. P. Bearman, et al.
39. Yvonne Dold-Samplonius. (2008). *Sinan Ibn Thabit Ibn Qurra, Abi Sa'ed*, in *Complete Dictionary of Scientific Biography* (Detroit: Charles Scribner's Sons.
40. Baron Carra De Vaux. (1993). *Ṭibb*, in *First Encyclopaedia of Islam: 1913-1936*, ed. T. Houtsma.
41. Huff. (the year of publication is not indicated). *The Rise of Early Modern Science: Islam, China, and the W*

